



UDK:81.1

Dilrabo NAZIRQULOVA,
Independent researcher in Uzbekistan state world languages university
E-mail: Dilrabozaфарovna3@gmail.com

DSc, professor B.Qurbonova taqrizi asosida

A COMPARATIVE ANALYSIS OF SUBJECTIVE MODALITY IN ENGLISH AND UZBEK MEDIA DISCOURSE

Annotation

This article provides a comparative-contrastive analysis of the linguistic expression of subjective modality in English and Uzbek media discourse. Drawing on the theories of scholars like V.G. Gak and N.A. Moroz, the research examines the role of modal verbs, adverbs, parenthetical phrases, and evaluative lexis in conveying the author's stance, emotions, and pragmatic intent. The analysis reveals that subjective modality serves as a crucial tool for enhancing the text's impact and establishing an emotional connection with the audience. The comparative study identifies both cross-linguistic similarities and specific differences in how subjectivity is expressed in both languages.

Key words: Modality, subjective modality, media discourse, modal verbs, modal adverbs, comparative-linguistic analysis.

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ СУБЪЕКТИВНОЙ МОДАЛЬНОСТИ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ МЕДИАДИСКУРСЕ

Аннотация

Данная статья посвящена сравнительно-сопоставительному анализу лингвистического выражения субъективной модальности в английском и узбекском медиадискурсе. Опираясь на теории таких ученых, как В.Г. Гак и Н.А. Мороз, исследование изучает роль модальных глаголов, наречий, вводных слов и оценочной лексики в выражении авторской позиции, эмоций и прагматических целей. Результаты анализа показывают, что субъективная модальность является важным инструментом для повышения выразительности текста и установления эмоциональной связи с аудиторией. Сравнительный анализ выявил как межъязыковые сходства, так и специфические различия в способах выражения субъективности в обоих языках.

Ключевые слова: Модальность, субъективная модальность, медиадискурс, модальные глаголы, модальные наречия, сравнительно-лингвистический анализ.

INGLIZ VA O'ZBEK MEDIADISKURSIDA SUBYEKTIV MODALLIKNING QIYOSIY TAHLILI

Аннотация

Ushbu maqola ingliz va o'zbek mediadiskurslarida subyektiv modallikning lingvistik ifodalanishini qiyosiy-kontrastiv tahlil qilishga bag'ishlangan. Tadqiqot V. G. Gak, N. A. Moroz kabi olimlarning nazariyalariga asoslanib, modal fe'llar, adverbiallar, kirish so'zlar va baholovchi leksikaning muallif pozitsiyasi, hissiyoti va pragmatik maqsadlarini aks ettirishdagi rolini o'rgandi. Tahlil natijalariga ko'ra, subyektiv modallik matnning ta'sirchanligini oshirish, auditoriya bilan emotsional aloqa o'rnatishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Qiyosiy tahlil har ikki tilda ham subyektivlikni ifodalashda tillararo o'xshashliklar va o'ziga xos farqlarni aniqladi.

Kalit so'zlar: Modallik, subyektiv modallik, mediadiskurs, modal fe'llar, modal adverbiallar, qiyosiy-lingvistik tahlil.

Kirish. Modallik kategoriyasi tilshunoslik ilmidagi ko'plab o'rganilgan va hali ham olimlar tomonidan o'rganilayotgan juda katta ko'lamga ega bo'lgan bir tushunchadir. Ushbu tushunchaning tilda ifodalanish vositalarini o'rganish, ayniqsa ikki tildagi qiyosiy tahlili, tillararo o'xshashlik va farqli jihatlarni qaytadan kashf etishga, tilshunoslik sohasiga yanada chuqur kirib borishga turtki bo'ldi. Modallikning obyektiv va subyektiv modallik kabi turlari mavjud bo'lib, obyektiv modallikda faktuallik, xolislik, shaxsiy munosabatdan xolilik ustun tursa, subyektiv modallik o'z navbatida, inson omiliga tayanib, so'zlovchining, yoki yozuvchining bayon qilingan mazmunga nisbatan shaxsiy munosabati, bahosi, hissiyoti, shaxsiy nuqtai nazarini aks ettiradi.

Adabiyotlar tahlili. Ushbu modallik turini atroflicha o'rganish natijasida, bir qancha olimlarning ishlari ko'rib chiqildi, tahlil qilindi. V.V. Vinogradov, Ch. Fillmor, O. Yesperson, D.N. shmelev va Xellidey kabi bir qator olimlar o'z ishlarida modallik kategoriyasini, shu jumladan, subyektiv modallik turini atroflicha tadqiq qilganlar. Shulardan biri

hisoblangan rusiyazabon tadqiqotchi N.A. Morozning fikrlariga ko'ra, "Matnning subyektiv modalligini, bizingcha, uning pragmatik jihatiga kiritish lozim, chunki matnning xarakteri muallifning voqelikdagi tasvirlanayotgan voqea va hodisalarga munosabati bilan belgilanadi, bu esa aniq til vositalarini tanlashda o'z aksini topadi." [Moroz, 2017:30]

Subyektiv modallik bevosita insonning shaxsiy munosabati, bahosi, biror bir bayon qilingan voqelikka nisbatan shaxsga xos xususiyatlari, his tuyg'ularini anglatishini tushunish qiyin emas, bu borada, ayniqsa, ya'ni matnning baholovchilik xususiyatini o'rganishda V.G. Gak tomonidan taklif qilingan subyektiv modallik ta'rifi juda munosib ta'rif sifatida izohlanadi: "Subyektiv modallik-bu bayon etilayotgan mazmuniy tarkibga nutq subyektivining munosabatini ko'rsatuvchi gapning xarakteristikasidir." [Gak, 1980; Moroz, 2017:30]

Mediadiskursda subyektiv modallikning ifodalanishi jurnalistning yoki matn muallifining xabar berilayotgan voqelikka nisbatan shaxsiy munosabati, bahosi, hissiyoti va nuqtai nazarini aks ettiradi. Obyektivlikka intilishga qaramay,

mediadiskursda subyektivlik matnning ta'sirchanligini oshirish, auditoriya bilan emotsional aloqa o'rnatish va ma'lumotga nisbatan muallifning pozitsiyasini ko'rsatish uchun muhim rol o'ynaydi.

Subyektiv modallikni o'rganishga bag'ishlangan ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi –ingliz va o'zbek tillarida hali yetarlicha o'rganilib ulgurilmagan mediadiskursdagi subyektiv modallik tushunchasini ikki tilda qiyosiy tahlilini olib borishga qaratilgan.

Metodologiya. Mediadiskurs namunalari sifatida olingan turli janrdagi mediamatnlar ya'ni, analitik maqola, yangilik reportaji, sharh va intervyu diskurslari subyektiv modallikning turli janrlarda turlicha qo'llanilish xususiyatlarini ochib berishda xilma-xillikni ta'minlash uchun xizmat qiladi. Tadqiqotimiz davomida subyektiv modallikni aniqlash uchun qo'llanilgan metodologik yo'nalishlar tadqiqot natijalarini aniq, samarali chiqishda muhim rol o'ynaydi. Lingvistik –semantik tahlil vositasida, mediadiskurs tarkibidagi modallikni ifodalovchi asosiy vositalar- modal fe'llar, modal adverbiallar, hissiy va baholovchi leksikalar ajratib olindi Ushbu tahlil usulidan tashqari yana ikki yondashuv–tavsifiy-tahliliy(descriptive-analytical) va qiyosiy kontrastiv (comparative-contrastive) metodlar tadqiqotimizning ishonchlik darajasini yanada kuchaytirdi, samarali tahlillar olishimizga turtki bo'ldi.

Tadqiqot materiallari hozirgi kunda zamonaviy mediadiskurs namunalari hisoblangan ingliz va o'zbek tillaridagi yirik onlayn va bosma nashrlar(The Independent, Daily Express, CNN Busieness, NBC News, Gazeta.uz, Xalq so'zi, Edu.uz) dan tanlab olingan matnlardan tashkil topgan. Bu manbalar orqali publitsistk uslubning o'ziga xos xususiyatlari, muallifning auditoriyaga ta'sir etishda foydalanadigan strategiyalari muvaffaqiyatli tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida bir qancha bosqichlar amalga oshirildi.

Material tanlab olish va tasniflash. Ushbu tadqiqotning ilk qadamida, olib borayotgan ishimizga oid materiallar subyektiv modallikni ifodalovchi leksik-grammatik vositalarning (modal fe'llar, modal adverbiallar, baholovchi leksika, kirish so'z va iboralar) mavjudligiga qarab saralab olindi. Lingvistik va pragmatik tahlil bosqichida, har bir tanlangan mediamatn namunasiga alohida e'tibor qaratilib, subyektiv modallikni ifodalovchi vositalar gapning semantik qurilishi, semantik ma'nosi va pragmatik funksiyasi(ya'ni, muallifning auditoriyaga nisbatan munosabati vamaqsadi) nuqtai nazaridan tahlil qilindi. Qiyosiy-kontrastiv tahlil bizga subyektivlikni ifodalashda tillararo farqlar va o'xshashliklarni aniqlash imkonini berdi.

Natijalar. Subyektiv modallik ingliz va o'zbek mediadiskursida bir necha vositalar orqali ifodalanaadi, bugungi ilmiy tadqiqotimiz ularning modal fe'llar va adverbiallar orqali ifodalanish vositalarini ko'rib chiqish, lingvistik va pragmatik jihatdan tahlil qilishga bag'ishlanadi. Bu turdagi vositalar, o'z-o'zidan ma'lumki, gap mazmunining ehtimolliigi, shubhaliligi, zaruriyati, imkoniyati yoki burchini so'zlovchining shaxsiy bahosi orqali ifodalab keladi. Ular biror bir keltirilgan faktga nisbatan subyektiv ishonch darajasini yoki muallifning munosabatini bildiradi. Ingliz tilida modal fe'llar(can, could, may, might, should, ought to, will, be able to...) kabi modal fe'llar subyektiv modallikni ifodalashda faol qo'llanilsa, kerak, shart, lozim, muvofiq, zarur,mumkin, ehtimol, bo'lishi mumkin,to'g'ri keladi....modal fe'llari o'zbek tilidagi namunalarda subyektiv modallikni ifodalovchi vositalar sanaladi. "At The Independent, we make no apology for returning once again to the iniquity of IPP orders that go against so much of what should constitute any civilized judicial system."The Independent gazetasing 14.07.2025 yilgi

sonidan olingan ushbu parchada ko'rib turganimizdek, should modal fe'li subyektiv modallikni ifodalab, bu modal fe'li subyektiv majburiyat yoki tavsiyani bildiradi. Jurnalistlar qonuniy tizim qanday bo'lishi kerakligi haqidagi shaxsiy idealini yoki meyoriy bahosini ifodalab kelmoqda.

"It applied only to new convictions not to those already in jail, leaving the glaring injustice that one day could make a difference between someone left to serve what could become a lifetime sentence and someone convicted of a similar crime with a clear idea of the timetable or paroles." Bu yerda ishlatilgan "could" fe'li imkoniyatni bildiradi, ammo,bu obyektiv imkoniyatdan ko'ra, muallifning mavjud holatga nisbatan ehtimoliy xulosasi yoki farazi sifatida ishlatilgan. Bunda, muallifning fikriga ko'ra, u holda "farq yuzaga kelishi mumkin edi. "what could become a lifetime sentence" (umrbod qamoq jazosiga aylanishi mumkin bo'lgan narsa) Bu yerdagi "could" modal fe'li ham xuddi yuqoridagi kabi, jazoning ehtimoliy, subyektiv baholangan muddatini ifodalaydi.Ushbu muddatning aniq berilmagani, va umrbodga cho'zilishi mumkinligi muallif tomonidan salbiy bir oqibat sifatida baholanmoqda. "We must prioritise the needs of British citizens and stop spending billions of pounds a year on those who've come from abroad.(DE, 15.08.2025,p.12) Our system needs a complete reset".Yuqoridagi mediadiskurs namunalarida keltirilgan need, must modal fe'llari muallifning shaxsiy munosabati hamda pozitsiyasini ko'rsatish uchun xizmat qilmoqda. Ingliz tilidagi mediadiskurs namunalari tahlildan so'ng, o'zbek mediadiskursi namunalari misolida subyektiv modallik vositalarini tahlil qilish, qiyosiy-lingvistik tahlilimizni yanada boyitadi: "Barqarorlikni faqat ishonchni chuqurlashtirish, kelishilgan chora-tadbirlar va yirik loyihalarni birgalikda amalga oshirish orqali ta'minlash mumkin." (Gazeta.uz,20.08.2025). Ushbu namunada ishtirok etgan "mumkin" modal fe'lining gap tarkibidagi pragmatik vazifasi esa quyidagicha tahlil qilinadi: Bu modal fe'l, faqatgina imkoniyatni emas, balki imkoniyatga erishishning ma'lum bir shartlari mavjudligini anglatadi. "Mumkin" modal fe'li "faqat" so'zi bilan birga kelib, matnga zaruriyat(necessity) tusini ham beradi. YA'ni bu barqarorlikka erishish imkonini bor, ammo bu imkoniyat faqatgina sanab o'tilgan chora-tadbirlar bajarilgan taqdirdagina amalga oshadi. Bu gapiruvchining o'z fikriga so'lgan ishonchini va o'zi taklif etgan yo'lining muhimligiga urg'u beradi. "Aytishim mumkinki, hozircha Markaziy Osiyo bunday umumiy makon emas. Ammo mamlakatlarda ishonch, xavfsizlik va barqarorlikka bo'lgan chinakam umumiy intilish bor va bu muhimdir. Va, eng muhimi bir tushuncha paydo bo'lmoqda: bunga yolg'iz emas, balki faqat birgalikda erishish mumkin"(Gazeta.uz, 20.08.2025).Yuqoridagi maqolaning yana bir qismi hisoblangan ushbu parcha muallifning Markaziy Osiyo mintaqasidagi o'zgarishlarga nisbatan shaxsiy bahosini va optimistik pozitsiyasini qanday ifodalashini ko'rsatuvchi yorqin misol hisoblanadi. " Aytishim mumkinki," yumshatuvchi iborasining mediadiskurs tarkibida qo'llanilishi mutlaq so'zlovchining subyektiv mulohazasi ekanligini namoyish etadi. Ushbu vosita matnga, ehtiyotkorlik tusini beradi, chunki bu fikr mutlaq haqiqat sifatida emas, balki gapiruvchining shaxsiy kuzatuviga asoslanadi, hamda muallifning o'z pozitsiyasini yumshoq tarzda ifodalashga yordam beradi. Gap so'nggida kelgan "yolg'iz emas, faqat birgalikda erishish mumkin", iborasi tarkibidagi subyektiv modallikni ifodalovchi mumkin modal fe'li hamda, faqat intensivatori so'zlovchining yagona va to'g'ri yechim haqidagi qat'iy ishonchini ko'rsatadi, bu orqali u boshqa barcha muqobil variantlarini inkor etadi va o'zining pozitsiyasini yagona to'g'ri yo'l sifatida ko'rsatadi.

Modal adverbiallar matnga muallifning shaxsiy qarash, nazariyalarini qo'shishda, ifodalashda ishlatiladigan, certainly,

clearly, definitely, probably, obviously, possibly, likely, perhaps, allegedly, apparently, frankly, hopefully, supposedly, actually kabi bir qator ravishlarni o'z ichiga oladi. O'zbek tilida esa, bunday modal adverbiallarga misol qilib, ehtimol, chamasi, aftidan, balki, go'yoki, albatta, aniqki, shubhasiz, ayoni, afsuski, xayriyatki, to'g'risi, aslida, o'zi, shaxsan, hatto kabi modallar va kirish so'zlarni kiritishimiz mumkin. "However it's not clear Trump can claim victory on trade just yet.... (CNN Business, 23.07.2025. "Trump's tariff dealmaking is back — and markets are reacting" Ushbu mediadiskursda "It's not clear" iborasi jurnalistning vaziyatga nisbatan shubhasini va subyektiv munosabatini yaqqol ifodalaydi. Ushbu namunada, muallif fikricha, Trampning savdo sohasidagi g'alabasi hali tasdiqlanmaganligi ta'kidlanmoqda. Muallif ushbu iboradan o'z pozitsiyasini ochiqchasiga ko'rsatishda mohirona foydalangan. "The trade war is far from complete, and the long-term implications of Trump's decisions could yet be damaging-economically and politically. (CNN Business, 23.07.2025.) Ko'rib turganimizdek, ushbu qisqa xabar parchasida "could yet be damaging" iborasi muallifning shaxsiy pozitsiyasini ko'rsatib, kelajakdagi oqibatlar noma'lumligi va xavotirli ehtimolni bildiradi. "However, a picture released Saturday by the Montana DOJ showed him fleeing the scene, apparently stripped down to just his boxers.(NBC NEWS, 3.08.2025, Search area expanded for man killing 4 at Montana bar). Bu misolga nazar tashlasak, apparently —chamasi, aftidan adverbiali ma'lumotning haqiqatga to'liq ishonch hosil qilinmaganligini ko'rsatadi. Jurnalist tasvirga qarab shunday xulosaga kelgan, ammo bunga umumiy barchaning fikri, hamma shu taxminda deb baho berolmaymiz, chunki bu muallifning shaxsiy kuzatishlari natijasida hosil bo'lgan, faqat o'zigagina tegishli shaxsiy taxmini hisoblanadi. Yuqorida ingliz mediadiskurs namunalarini tahlilidan so'ng, o'zbek mediadiskursi namunalarini tarkibidagi modal adverbiallar orqali ifodalangan subyektiv modallikni tahlil qilish maqsadga muvofiqdir: "Ma'lumki, talabalikka tavsiya etilganlar davlat oily ta'lim muassasalarining talabalar turar joyiga joylashish uchun Davlat xizmatlari markazi yoki my.gov.uz portali orqali onlayn ariza yuborish imkoniyatiga ega."(Edu.uz t.me/eduuz.15.08.2025)

"Darhaqiqat, so'nggi to'qqiz yildagi keng ko'lamlil islohotlar natijasida hamjamiyatimizning ijtimoiy-siyosiy manzarasi tubdan o'zgarib, yangi mazmun bilan boyimoqda." "Xalq so'zi" gazetasi, 29.08.2025 yildagi sonidan olingan ushbu mediadiskurs parchasida "darhaqiqat" so'zining ishlatilishi, muallif o'z bildirayotgan fikriga shubhasiz

ADABIYOTLAR

1. Андреевна, Н. Е. (2019, Fevral 10). Жанр "Аналитическая статья" (на примере текстов англоязычной качественной прессы). Филологические науки. Вопросы теории и практики, 43-46-betlar.
2. Андреевна, Н. Е. (2020). Определение понятия «жанр» (основные подходы, проблемы и перспективы): Филологические науки. Вопросы теории и практики, 125-133-betlar.
3. Краснова, Т. И. (2002). Субъективность – Модальность (материалы активной грамматики). СПб.: Изд-во СПбГУЭФ.
4. Gak, V. G. (1980). Teoreticheskaya grammatika frantsuzskogo yazyka: Sintaksis. Moskva: Vysshaya shkola.
5. Moroz, N. A. (2017). Subyektivnaya modalnost teksta v gazeto-zhurnalnom diskurse. Vestnik Yuzhno-Uralskogo gosudarstvennogo universiteta. Seriya: Lingvistika, 14(4), 28-34.
6. "A picture released Saturday by the Montana DOJ showed him fleeing the scene, apparently stripped down to just his boxers." (2025, August 3). NBC News.
7. "At The Independent, we make no apology for returning once again to the iniquity of IPP orders..." (2025, July 14). The Independent.
8. "Barqarorlikni faqat ishonchni chuqurlashtirish...ta'minlash mumkin." (2025, August 20). Gazeta.uz.
9. "So'nggi to'qqiz yildagi keng ko'lamlil islohotlar natijasida..." (2025, August 29). Xalq so'zi.
10. "We must prioritise the needs of British citizens..." (2025, August 15). The Daily Express.
11. <https://edition.cnn.com/2025/07/23/business/trump-trade-deals>. How Trump turned the tide in his trade war. David Goldman, 23.07.2025
12. <https://www.nbcnews.com/news/us-news/montana-bar-shooting-suspect-rcna222642> Search area expanded for man accused of killing 4 at a Montana bar, 3.08.2025, By Mirna Alsharif, Kathy Park, Rebecca Cohen and Dennis Romero